



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





Fransuz tilida fe'llarni qo'llash

Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi "chet tillar" kafedrası
fransuz tili fani o'qituvchisi

Usmanova Malika Adilovna

Annotatsiya: Fransuz tili dunyodagi eng chiroyli va nufuzli tillardan biri hisoblanadi. U xalqaro munosabatlar, madaniyat, ilm-fan va turizm sohalarida keng qo'llaniladi. Fransuz tilini o'rganishda eng muhim mavzulardan biri bu — fe'llarni to'g'ri qo'llashdir. Chunki fe'l gapning asosini tashkil etadi va harakat, holat hamda vaqtni ifodalaydi.

Fransuz tilida fe'llar asosan uch guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga "—er" qo'shimchasi bilan tugaydigan fe'llar kiradi. Bular eng oson va ko'p uchraydigan fe'llar hisoblanadi. Masalan: parler (gapirmoq), aimer (sevmok), travailler (ishlamok). Bu guruh fe'llari ma'lum qoidalar asosida tuslanadi.

Kalit so'zlar: Ikkinchi guruhga "—ir" bilan tugaydigan fe'llar kiradi. Masalan: finir (tugatmok), choisir (tanlamok). Ularning tuslanishi birinchi guruhdan biroz farq qiladi. Uchinchi guruh esa noqoidaviy fe'llardan iborat bo'lib, ular maxsus tarzda yodlanadi. Être, avoir, aller va faire kabi fe'llar shu guruhga kiradi.

Fransuz tilida fe'llar shaxsga qarab o'zgaradi. Masalan, "parler" fe'li "je parle", "tu parles", "nous parlons" shakllarida ishlatiladi. Bu holat fransuz tilining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli fe'llarning tuslanishini yaxshi o'zlashtirish katta ahamiyatga ega.

Fransuz tilida hozirgi, o'tgan va kelasi zamon shakllari mavjud. Présent zamoni hozirgi vaqtda bajarilayotgan harakatni bildiradi. Masalan: "Je mange" — "Men yeyapman". Passé composé esa o'tgan zamonni ifodalaydi: "J'ai mangé" — "Men yedim". Kelasi zamonni ifodalash uchun "aller + infinitif" konstruksiyasi qo'llaniladi: "Je vais étudier" — "Men o'qiymen".

Bundan tashqari, fransuz tilida refleksiv fe'llar ham mavjud. Ular insonning o'ziga nisbatan bajariladigan harakatni anglatadi. Masalan: se laver (yuvinmok), se réveiller (uyg'onmok). Bu fe'llar maxsus olmoshlar bilan ishlatiladi.

Fransuz tilini o'rganishda être va avoir fe'llari alohida ahamiyatga ega. Chunki ular nafaqat mustaqil ma'noda, balki ko'plab zamonlarni yasashda yordamchi fe'l sifatida ham qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, fransuz tilida fe'llarni to'g'ri qo'llash tilni mukammal o'rganishning asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi. Fe'llarning tuslanishi, zamonlari va qo'llanish qoidalarini muntazam mashq qilish orqali o'quvchi fransuz tilida erkin muloqot qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Fransuz tilida fe'llar nafaqat grammatik jihatdan, balki muloqot jarayonida ham muhim o'rin tutadi. Har qanday gapning mazmuni asosan fe'l orqali ifodalanadi. Shu sababli fransuz tilini o'rganayotgan o'quvchilar avvalo eng ko'p ishlatiladigan fe'llarni va ularning tuslanishini yaxshi bilishlari kerak.





Fransuz tilida fe'llar zamon, shaxs va songa qarab o'zgaradi. Bu esa tilni o'rganishda muntazam mashq qilishni talab etadi. Ayniqsa, présent, passé composé va futur kabi asosiy zamonlarni o'zlashtirish kundalik suhbatlarda erkin gapirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, fransuz tilida yordamchi fe'llar katta ahamiyatga ega. Être va avoir fe'llari ko'plab murakkab zamonlarni hosil qilishda ishlatiladi. Masalan, passé composé zamoni aynan shu yordamchi fe'llar yordamida yasaladi. Shu sababli bu fe'llarni mukammal o'rganish zarur hisoblanadi.

Fransuz tilini samarali o'rganish uchun:

- har kuni yangi fe'llarni yodlash;
- ularni gap ichida ishlatish;
- matn o'qish va audio tinglash;
- dialoglar tuzish;
- fe'llar tuslanishini yozma mashqlar orqali mustahkamlash

katta foyda beradi.

Bugungi kunda internet va mobil ilovalar orqali ham fransuz tilidagi fe'llarni o'rganish imkoniyatlari kengaygan. Turli interaktiv dasturlar, videodarslar va onlayn lug'atlar o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, fransuz tilida fe'llarni puxta o'rganish tilni mukammal egallashning muhim sharti hisoblanadi. Fe'llarni to'g'ri qo'llash orqali inson o'z fikrini aniq va ravon ifoda eta oladi.

ADABIYOTLAR

8. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni.

9. Abduazizov A.A. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. Toshkent, "O'qituvchi", 2012.

10.

,Andreychikova A. P, Yusupova N.A
fonetikasi" O'zbekiston 2010-y.5-b

Ubaydullayev M
"Fransuz tili

11. BledE,BledO. "Orthographe ,Grammaire", ParisHACHETTE,2009
25-b

12. www.google.uz

13. www.ziyonet.uz

14. yandex.ru

